

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI (2021- yil yanvar- dekabr oylari uchun, dastlabki ma'lumotlar)

Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra **1948,5** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **24,8** ming kishiga yoki **1,3 %** ga ko'paydi. Jumladan shahar aholisi soni **954,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0 %**), qishloq aholisi soni **994,2** ming kishi (**51,0 %**)ni tashkil etdi.

Ming kishi



Doimiy aholi soni

1948,5



✓ Tug'ilganlar soni

40,3



✓ O'lganlar soni

8,8



✓ Nikohlar soni

15,7



✓ Ajrimlar soni

1,4



✓ Ko'chib kelganlar soni

11,8



✓ Ko'chib ketganlar soni

18,6



Shahar joylarda

954,3 ming kishi


Doimiy aholi soni

1948,5 ming kishi

Qishloq joylarda

994,2 ming kishi

Doimiy aholi sonining tuman (shahar) lar bo'yicha taqsimlanishi (1- yanvar holatiga ko'ra, ming kishi)





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **59,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **9,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar (yanvar- dekabr oylari uchun, ming kishi)

	2021- yil
Doimiy aholi soni	1948,5
Tug‘ilganlar	40,3
Vafot etganlar	8,8
Aholining tabiiy o‘sishi	31,5
Kelganlar	11,8
Ketganlar	18,6
Migratsiya saldosi	-6,8
Tuzilgan nikohlar	15,7
Nikohdan ajralishlar	1,4


1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille

tug‘ilish	20,8
o‘lim	4,5
aholining tabiiy o‘sishi	16,3
tuzilgan nikohlar	8,1
nikohdan ajralishlar	0,7

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **40,3** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (*bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi*), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,8** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligi kuzatildi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 20,6 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tuman (shahar)lar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-dekabr)



Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **8,8** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promille kamayganligi kuzatildi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,8 promille bo'lган).

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2021- yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



2021-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,2 % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,0 % i - o'simtalardan, 7,5 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,0 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 % i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,8 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 74,2 % i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,8 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,5 % i - tug'ma anomaliyalardan, 1,2 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,2 % i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,2 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,9 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Tabiiy o'sish. 2021- yilning yanvar- dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi **31,5** ming kishini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **1,4** ming kishiga (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **30,1** ming kishi bo'lган) ko'paygan.


Tabiiy o'sish — 31,5 ming kishi



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni
(yanvar- dekabr oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti
(2021- yil yanvar- dekabr oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)




Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida eng yuqori nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Nukus tumanida** (10,3), **Amudaryo** (9,0) **Qo'ng'iroq** (8,6) va **Ellikqal'a** (8,5) kuzatildi.


Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Taxiatosh** (6,5), **Qorao'zak** (6,5), **Shumanay** (6,4), va **Taxtako'pir** (6,0) tumanlarida kuzatildi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar
soni to'g'risida ma'lumot**
(yanvar- dekabr oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti
(2021- yil yanvar- dekabr oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)



Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida eng yuqori nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Xo'jayli** (1,1), **Qo'ng'irot** (1,0), **Taxiatsosh** (1,0) tumanlarida va **Nukus shahrida** (0,9), kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar- dekabr oylarida eng kam nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Bo'zatov** (0,6), **Qorao'zak** (0,6), **Beruniy** (0,5) va **Mo'ynoq** (0,4) tumanlarida kuzatildi.





Aholi migratsiyasi



	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar soni, kishi	7 778	11 826
Ko'chib ketganlar soni, kishi	12 517	18 590
Migratsiya saldozi, kishi	-4 739	-6 764

Migratsiya (Ichki va tashqi migratsiya qo'shilgan holda). 2021- yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 11 826 kishini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib ketganlar soni 18 590 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldozi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida migratsiya saldozi minus 6764 kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 4739 kishi bo'lgan.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

**Tuman (shahar)lar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(2021- yil yanvar-dekabr uchun, kishi)**


	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11 826	18 590	-6 764
Nukus shahri	4 035	3 662	373
tumanlar:			
Amudaryo	332	1 007	-675
Beruniy	303	678	-375
Bo‘zatov	1 216	1 387	-171
Qorao‘zak	173	647	-474
Kegeyli	517	1 286	-769
Qo‘ng‘irot	450	1 375	-925
Qonliko‘l	369	568	-199
Mo‘ynoq	470	294	176
Nukus	748	957	-209
Taxiatosh	612	866	-254
Taxtako‘pir	184	522	-338
To‘rtko‘l	512	706	-194
Xo‘jayli	841	1 658	-817
Chimboy	443	1 611	-1 168
Shumanay	247	599	-352
Ellikqal‘a	374	767	-393



Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2022- yil 1- yanvar holatiga **329,1** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **5,3** ming kishiga yoki **1,6 %** ga o'sgan.



2021- yilning yanvar- dekabr oylarida Nukus shahrida **6,4** ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan **19,5** promilleni tashkil etdi (2020- yilning mos davrida **18,5** promille bo'lgan).




Nukus shahrida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar



Nikoh. FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar- dekabr oylarida **2749** ta nikohlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **8,4** promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **3,0** promillega ko'paydi (2020- yilning mos davrida **5,4** promille bo'lgan).

Nikohdan ajralishlar FHDYO
organlarida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **297** ta nikohdan ajralishlar qayd etildi va 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **0,2** ga ko'paydi. 2020- yilning mos davrida **0,7** promille bo'lgan.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi**
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57